



Bobur va boburiylar davri hamda o'sha davrda yaratilgan forsiy izohli lug'atlar.

Nasimova Maxliyo

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 402 - guruh
talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bobur va Boburiylar saltanati davrida Hindiston yarim orolida shakllangan forsiy izohli lug'atshunoslik (leksikografiya) an'analari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-siyosiy sabablari tadqiq etiladi. Maqolada tahlilga tortilgan leksikografik manbalar orqali ikki buyuk til forsiy va turkiy tillarning o'zaro sintezi, shuningdek, boburiylar saroy muhitida chig'atoy (eski o'zbek) tilining tutgan o'rni yangi lisoniy dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Boburiylar saltanati, forsiy leksikografiya, chig'atoy qatlami, madaniy muloqot, lug'at, semantika, saroy tili.

Annotation: This article examines the traditions of Persian explanatory lexicography formed in the Indian subcontinent during the reign of Babur and the Mughal Empire, focusing on their specific characteristics and socio-political factors. Through the lexicographical sources analyzed in the article, the mutual synthesis of two great languages Persian and Turkic as well as the role of the Chagatai (Old Uzbek) language in the Mughal court environment are demonstrated based on new linguistic evidence.

Keywords: Mughal empire, persian lexicography, chagatai stratum, cultural dialogue, dictionary, semantics, court language.

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan Boburiylar saltanati nafaqat ulkan geografik hududlarni, balki turli madaniyat va tillarni ham yagona geosiyosiy makonda birlashtirdi. Temuriylarning Movarounnahr va Xurosondagi boy madaniy merosi Hindiston zaminiga ko'chishi natijasida bu yerda o'ziga xos "Boburiylar saltanati" yuzaga keldi. Davlat boshqaruvi, diplomatiya va adabiyot tili sifatida fors tili yetakchilik qilgan bo'lsa-da, sulola vakillarining ona tili bo'lmish turkiy (chig'atoy) tili ham o'z nufuzini yo'qotmadi. Hindistonda Boburiylar sulolasi davrida XIV–XIX asrlarda yaratilgan forsiy lug'atlar sharq tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi. Forsiy lug'atchilik an'analari IX–X asrlarda shakllana boshlandi. Ilk lug'atlar arab tili ta'sirida yaratilgan bo'lib, asosan forsiy so'zlarning ma'nolarini arab tilida izohlashga qaratilgan.

Izohli lug'atlardan: Asadi Tusiyning "Lug'ati furs", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Husayni Injuning "Farhangi Jahongiriy", Roy Tekchandi

Bahorning “Bahori Ajam”, Abdurashid Tattaviyning “Farhangi Rashidiy”, Muhammad G‘iyosuddinning “G‘iyos-ul-lug‘ot”, Muhammad Rizo Xoksoning “Muntahab-ul-lug‘ot”, Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul-adab”, “Siroj-ul-lug‘ot”, “Shams-ul-lug‘ot”, “Badayi-al-lug‘at”, “Sanglox”, “Xamsa ba xalli lug‘ot”, “Xulosa-yi Abbosiy”, “Lug‘oti atrokya”, “Kelurnoma”,¹ va boshqalarni keltirish mumkin. Bu lug‘atlarda forsiy so‘zlar ma‘nolari, qo‘llanilishi va ayrim hollarda ularning etimologiyasi ham bayon etilgan.

Eron va Markaziy Osiyo leksikografiya maktablaridan farqli o‘laroq, Boburiylar Hindistonida yaratilgan lug‘atlar o‘zining qomusiy tabiati, so‘zlarning etimologiyasiga chuqur e‘tibor qaratishi va eng muhimi ko‘p tillilik xarakteri bilan ajralib turadi. Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir kabi hukmdorlar adabiyot va ilm-fan homiylari bo‘lishgan. Ularning saroyida faoliyat yuritgan lug‘atnavislar faqatgina forsiy so‘zlarni izohlash bilan cheklanib qolmay, jonli muloqotda va harbiy-ma‘muriy tizimda qo‘llanilayotgan turkiy va hindiy leksikani ham lug‘at tarkibiga tizimli ravishda kirita boshladilar. XIX asrga qadar jahon madaniyati tarixida muayyan millatning til boyluklarini namoyish etadigan, so‘zlar sharhi va izohlaridan iborat bo‘lgan behisob tarixiy lug‘atlar yaratildi. Ayni lug‘atlar arab, fors, hind, turkiy, rumiy, lotin tillariga mansub ko‘plab so‘z va iboralarni izohlab beradi. Biz uchun noma‘lum so‘zlarni ma‘lum qiladi, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni tushuntiradi. Ularning ma‘nosini chiroyli tarzda ochib beradi.

O‘sha davr ijtimoiy hayotida fors, arab, hind so‘zlari bilan bir qatorda turkiy so‘zlardan ham faol foydalanib kelingan. Bunga sabab xalq hayotidagi va harbiy sohaga oid ko‘pgina asboblar, tushunchalar, urf-odatni anglatadigan so‘zlarning turkiy ekanligi edi. Boburiylar sulolasi davrida fors tili rasmiy va adabiy til sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Biroq, bu davr lug‘atlarida turkiy tilga oid ko‘plab so‘z va atamalar ham qayd etilgan. Bu holat madaniy aloqalarning kengligi, turkiy xalqlar va ularning davlatchilik an‘analari Hindiston hududida katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Forsiy izohli lug‘atlardagi turkiy leksemalarga misollar:

“G‘iyos-ul-lug‘ot”–Muhammad G‘iyosuddin (XIX asr) tomonidan yaratilgan.

- (التمش) altamish) harbiy yurishda oldinda boruvchi qism.
- (گۆگ) gög) osmon.
- (قنداق) qo‘ndaq) yog‘och bo‘lib, unga mitiqning trubasini o‘rnatadilar.

“Farhangi Jahongiri”

- (تومان) tuman) o‘n minglik harbiy birlik.
- (قورچی) qo‘rchi) podshoh muhofizlari.
- (یغیت) yigit) jasur, qahramon yigit.

“Burhoni qote” Muhammad Husayn Tabriziy (XVII asr), unda ko‘pgina turkiy leksemalar izohlangan.

- (اردو) ordu/orða) qarorgoh, saroy.
- (بیگ) bek) amir, hukmdor.
- (اوت) ot) ot.

¹ .Капранов В.А. Таджикско-персидская лексикография в Индии XVI-XIX вв., -Душанбе, 1987. - 221 стр.

Xulosa qilib aytganda, Bobur va Boburiylar davrida Hindistonda yaratilgan forsiy izohli lugʻatlar shunchaki bir tilning soʻz boyligi emas, balki tillararo muloqotning jonli koʻzgusidir. Hindistonda yaratilgan forsiy lugʻatlar nafaqat forsiy tilning boyishi, balki turkiy tillar taʼsirini oʻrganishda ham muhim manba hisoblanadi. Turkiy soʻzlarning lugʻatlarda qayd etilishi ularning keng qoʻllanilganini, turkiy xalqlar madaniyati va davlatchilik tizimi Boburiylar davlati hayotida alohida oʻrin tutganini koʻrsatadi. Ushbu manbalarda turkiy soʻzlarning izohlanishi, oʻzbek davlatchilik anʼanalari, harbiy sanʼati va maishiy madaniyatining Hindiston zaminida chuqur ildiz otganidan dalolat beradi. Mazkur leksikografik asarlarni oʻrganish bugungi kunda eski oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda eng ishonchli manba boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Нуров А. Фиёс-ул-луғот. -Душанбе: Адиб, жилди I., 1987. -372 б.
- 2.Капранов В.А. Таджикско-персидская лексикография в Индии XVI-XIX вв., -Душанбе, 1987. - 221 стр.
- 3.Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. - Т.: Ўзбекистон, 1994. -122 б.
- 4.Шамс ул-луғот. Икки жилдлик. Калкутта, 1806. – 540 б.
- 5.Иноятуллоҳ Р. Бобурийлар даври маданияти ва тил хусусиятлари. Дехли: Оксфорд нашриёти, 2012. 185 б.